



“TASDIQLAYMAN”

Akademik Yo.X. To'raqulov nomidagi
Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya
ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori

A.V.Alimov

« 2 » 09 2026 yil

**ILMIY TADQIQOT ISHI TAQDIMOTIGA QO'YILADIGAN TALABLAR VA
BAHOLASH MEZONLARINI QO'LLASH TARTIBI
(2027 yil qabuli uchun)**

1. Umumiy qoidalar

- 1.1. Mazkur talablar ilmiy kadrlar tayyorlashning ustuvor yo'nalishlariga oid ixtisosliklar bo'yicha tayanch doktorantura (PhD) va doktorantura (DSc)ga qabulda ilmiy tadqiqot ishi taqdimotini tayyorlash, taqdim etish va baholashni tashkil etish uchun qo'llaniladi.
- 1.2. Taqdimot talabgorning rejalashtirilayotgan ilmiy tadqiqotining maqsadi, obyekti, ahamiyati va uni amalga oshirish rejasi haqidagi qisqacha ma'lumotni qamrab oladi.
- 1.3. Taqdimotdagi ma'lumotlar ishonchli ilmiy, statistik, tahliliy yoki boshqa tegishli manbalarga asoslanishi lozim.
- 1.4. Taqdimot davlat tilida tayyorlanadi; tashkilot faoliyati yoki ilmiy ixtisoslik xususiyatidan kelib chiqib rus, ingliz yoki boshqa tilda tayyorlanishi mumkin.
- 1.5. Taqdimot loyihasi qabul hujjatlari tarkibida Yagona elektron tizimga elektron shaklda yuklanadi. Talabgor yuklangan loyihara belgilangan muddatda o'zgartirish kiritishi mumkin.

2. PhD taqdimotining tarkibi

- 1) tadqiqot mavzusi va talabgor to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar;
- 2) tadqiqot mavzusining dolzarbligi va o'rganilganlik darajasi;
- 3) tadqiqot maqsadi va vazifalari;
- 4) tadqiqot obyekti, predmeti va qamrovi;
- 5) tadqiqot metodologiyasi va usullari;
- 6) tadqiqot g'oyasi va kutilayotgan ilmiy ahamiyati;
- 7) tadqiqotni amalga oshirish bosqichlari va ish rejasi;
- 8) tadqiqotni amalga oshirish imkoniyati va yakuniy asoslash.

Eslatma: PhDga qabulda ilmiy yangilik yoki yakuniy ilmiy natija talab etilmaydi; asosiy e'tibor muammoning asoslanganligi, qismlarning mantiqiy bog'liqligi va tadqiqotni amalga oshirish imkoniyatiga qaratiladi.

3. DSc taqdimotining tarkibi

- 1) tadqiqot mavzusi va talabgor to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar;
- 2) avvalgi ilmiy natijalar va ularning rejalashtirilayotgan tadqiqot bilan bog'liqligi;
- 3) ilmiy muammoning zamonaviy holati va hal etilmagan jihatlar;
- 4) tadqiqot konsepsiyasi, maqsadi va asosiy vazifalari;
- 5) tadqiqot obyekti, predmeti va qamrovi;
- 6) tadqiqot metodologiyasi va usullari;
- 7) kutilayotgan ilmiy yangilik;

- 8) kutilayotgan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati;
- 9) tadqiqotni amalga oshirish strategiyasi, bosqichlari va yakuniy asoslash.

4. Baholash tartibi

- 4.1. Taqdimot 100 ballik tizimda baholanadi.
- 4.2. Har bir komissiya a'zosi talabgorni mustaqil va alohida baholaydi.
- 4.3. Eng yuqori balldan kam ball qo'yilganda, bajarilmagan shart yoki ball kamaytirilishining aniq asosi baholash jadvalida qayd etiladi.
- 4.4. Yakuniy natija komissiya a'zolari qo'ygan umumiy ballarning o'rtacha arifmetik qiymati sifatida hisoblanadi.
- 4.5. Baholash ikki bosqichda: hujjatlar bilan oldindan tanishish va dastlabki baholash; og'zaki taqdimot hamda savol-javobdan so'ng yakuniy baholash tarzida o'tkaziladi.
- 4.6. PhD va DSc uchun tegishli baholash mezonlari Uslubiy ko'rsatmaning 3 va 4-ilovalaridagi jadvallar asosida qo'llaniladi.

5. Tashkiliy talablar

- 5.1. Barcha talabgorlar uchun teng tashkiliy sharoit, yagona yondashuv, xolislik va shaffoflik ta'minlanadi.
 - 5.2. Taqdimot sanasi, vaqti, joyi, formati va savol-javob vaqti oldindan ma'lum qilinadi.
 - 5.3. Komissiya kamida 5 nafar tegishli ilmiy malaka va tajribaga ega mutaxassisdan tuziladi. Manfaatlar to'qnashuvi mavjud komissiya a'zosi tegishli talabgorni baholashda ishtirok etmaydi.
 - 5.4. Baholash jadvallari va natijalar keyinchalik tekshirish imkonini beradigan shaklda rasmiylashtirilib, belgilangan tartibda saqlanadi.
- Mazkur hujjatga PhD va DSc taqdimotining namunaviy shakllari hamda tegishli baholash jadvallari ilova qilinadi.

Ilmiy kengashning 2026 yil «2» 09 dagi 7-son bayonnomasi bilan tasdiqlangan.